

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAPNING QURILISHI

Xudoyqulov Otabek Bohodir o'g'li

Zarmed Universiteti xorijiy filologiya kafedrasida assistent o'qituvchisi

Muxiddinova Fariza Nuriddinovna

Zarmed Universiteti filologiya va tillarni o'qitish ingliz tili yo'nalishi talabasi

[Email: farizamuxiddinova381@gmail.com](mailto:farizamuxiddinova381@gmail.com)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ingliz va o'zbek tillaridagi gap tuzilmasining qiyosiy tahlili ko'rib chiqiladi. Ikki til o'rtasidagi sintaktik xususiyatlarini o'rganish va ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashdan iborat bo'ladi. Ushbu maqolada ingliz tiliga xos gap qurilishi va o'zbek tiliga xos gapning qurilishi batafsil ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Qiyosiy tahlil, gap tuzilmasi, ingliz tili, o'zbek tili, so'z tartibi, Grammatik farqlar,

Comparative analysis of English and Uzbek sentence structure

Abstract. In this article displays a comparative analysis of sentence formation in English and Uzbek languages. It is composed of studying the syntactic features between two languages and identifying their similarities and differences. This article shows a fact analysis of sentence structure in English and Uzbek languages.

Key words: comparative analysis, sentence structure, english language, uzbek language, word order, grammar difference,

Bizga ma'lumki til ijtimoiy hodisa sanaladi. Shu tufayli u o'ziga oid bo'lgan xalqning hayoti bilan bog'liq holda taraqqiy qiladi, boyiydi, saqlagan imkoniyatlar doirasini kengaytiradi, jamiyatda qadr topadi. Til nafaqat insonlar o'rtasidagi aloqa-aralashuvini ta'minlash vazifasini bajaradi, balki u yuksak estetik qimmatga ham egadir. Til ikishilar o'rtasidagi aloqa-aralashuv qurolidir.

Til haqida ko'plab olimlar fikri bayon qilingan. Bulardan Abulqosim Firdavsiy shunday deydi: "Olamda eng avval inson aqli yaralgan aql qalb posbonidir aql yana uch qo'riqchi: til, ko'z, quloqning ustidan ham posbonlik qilguvchidir. Zero ezgulik va

yoʻzuvlik aynan ana shu uch azo orqali qalbga kirib boradi”deb ta’kidlagan. Shunga binonan tilning yaralishi ham bir mo’jiza kabidir. Yana bir olim Alisher Navoiy ham shunday ta’kidlaydi: “Inson-til bilan boshqa hayvonlardan imtiyozlidir. Uning til orqali boshqa odamlardan afzalligi bilinadi. Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq na’maqul bo’lib chiqsa-tilning ofatidir” deyiladi.

Gap-bu voqelikni va unga bo’lgan munosabatni ifoda qilish uchun Grammatik jihatdan ifodalangan so’z bog’lanmasi gap deyiladi. Gapni fikrni ifoda etuvchi deb ham talqin etishadi. Gapning Grammatik asosini bosh bo’laklar tashkil etib bular: Ega, to’diruvchi va kesimdan iborat bo’ladi. Ingliz tilida ham gapning grammatik asosini Ega (Subject) va kesim (Verb) to’ldiruvchi (Object) tashkil etadi va ular orqali gaplar tuziladi. Masalan:

1) “Men maktabga boraman”-Ushbu gapda ega-gapning egasi ya’ni men to’ldiruvchi-maktabga kesim-boraman.

2) “Men har kuni oyimga yordamlashaman” Ega-men, to’ldiruvchi-oyimga kesim-yordamlashaman

Ingliz tilida esa biroz farqlanadi. Masalan:

1) “I go to school”-bu yerda Subject- I(men) Verb-go(boraman) object esa-school (maktab).

2) “I water the flowers twice a week - Ega (I) kesim (water) to’ldiruvchi (the flowers)

Ingliz tilida gap tuzish uchun shunchaki Ega (subject) Kesim (verb). Gaplar esa ifoda maqsadiga ko’ra uch turga bo’linadi: Darak gap, So’roq gap, va Inkor gaplar. Ingliz tilida esa Positive, Negative, va Interrogative gaplarga bo’linadi. Masalan:

1) Kitob o’qish nafaqat bilimni oshiradi, balki mantiqiy fikrlash doirasini ham kengaytiradi.

- Reading a book not only gives knowledge but also promotes critical thinking.

So’roq gap-Interrogative

2) Agar imkoniyat bo’lsa, siz qaysi davlatda o’qishni tanlagan bo’lar edingiz?

-If you had a chance to study abroad, which country would you choose?

Inkor gap-Negative

3) Shunday vaziyatlar borki ularni inkor etib bo'lmaydi.

-There are situations which cannot be ignored.

Xulosa qilib aytganda,ushbu maqolada ingliz tili va o'zbek tili grammatik bilimlarning ahamiyati ko'rib,o'rganilib chiqildi.Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki tizimli yondashuv til o'rganish samaradorligini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://arxiv.uz>
2. <https://arxiv.uz>
3. <https://hikmatlar.uz>
4. Po'latov Shohruh.Ona tili yangi qo'llanma.-Toshkent:"Regbooks" nashriyoti,
5. Vikipediya.uz